



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:4 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li</i>	4
2.	QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'NING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI <i>Bobomurodov Abdurasul</i>	7

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li

Jizzax politexnika institute. Iqtisodiyot va menejment kafedrasida dotsenti v.b., PhD

<https://orcid.org/0000-0003-3339-0650>

baytanovuralboy@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. O'tkazilgan tahlillar natijasida Jizzax viloyati yetakchi sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligi bo'yicha kompleks integral baholash uslubiyoti ishlab chiqildi hamda ishlab chiqilgan baholash uslubiyotini amaliyotda qo'llash bosqichlari keltirildi. Umuman olganda, kompleks baholash natijalari Jizzax viloyati sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligi turlicha darajada ekanligini ko'rsatdi. Integral indeksning yuqori bo'lishi asosan xalqaro standartlarning joriy etilganligi, texnologik modernizatsiya darajasi, eksport salohiyati, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion faollik bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Sanoat korxonalarida, mahsulot sifatini boshqarish, kompleks baholash uslubiyoti, sifatni boshqarish samaradorligi, uslubiy yondashuv, ISO 9001, sifat menejmenti tizimi.

Abstract: The article analyzes methodological approaches to assessing the effectiveness of product quality management in industrial enterprises. Based on the conducted analysis, a comprehensive integrated assessment methodology for evaluating the effectiveness of product quality management was developed using the example of leading industrial enterprises in the Jizzakh region. In addition, the stages of practical implementation of the proposed assessment methodology are presented. Overall, the results of the comprehensive assessment indicate that the effectiveness of product quality management varies across industrial enterprises in the Jizzakh region. It was determined that a high integral index is primarily associated with the implementation of international standards, the level of technological modernization, export potential, the digitalization of production processes, and the level of innovation activity.

Keywords: Industrial enterprises, product quality management, comprehensive assessment methodology, effectiveness of quality management, methodological approach, ISO 9001, quality management system.

Абстрактный: В статье проведен анализ методологических подходов к оценке эффективности управления качеством продукции на промышленных предприятиях. По результатам проведенного анализа разработана комплексная интегральная методика оценки эффективности управления качеством продукции на примере ведущих промышленных предприятий Джизакской области, а также представлены этапы практического применения разработанной методики оценки. В целом результаты комплексной оценки показали, что эффективность управления качеством продукции на промышленных предприятиях Джизакской области находится на различном уровне. Установлено, что высокое значение интегрального индекса непосредственно связано с внедрением международных стандартов, уровнем технологической модернизации, экспортным потенциалом, цифровизацией производственных процессов и инновационной активностью предприятий.

Ключевые слова: Промышленные предприятия, управление качеством продукции, комплексная методика оценки, эффективность управления качеством, методологический подход, ISO 9001, система менеджмента качества.

Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi kunda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash va eksport salohiyatini rivojlantirishda mahsulot sifatini boshqarish muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayishi, iste'molchilar talablarining ortib borishi hamda xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish zarurati korxonalarda sifat menejmenti tizimini doimiy takomillashtirishni talab etmoqda. Xalqaro standartlarga muvofiq, sifat menejmenti tizimi korxonaning barcha jarayonlarini uzluksiz takomillashtirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va barqaror natijalarga erishishga qaratilgan boshqaruv tizimi hisoblanadi [1]. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholash korxonada faoliyatining iqtisodiy natijalari, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulotning raqobatbardoshligi va iste'molchilar qoniqish darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mahsulot sifati sanoatning innovatsion rivojlanishi, texnologik modernizatsiyasi hamda eksport imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi [2].

O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarni keng joriy etishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar doirasida sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimining samaradorligini

baholash, mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda xalqaro standartlarni joriy etish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [3]. Mazkur sharoitda mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini kompleks baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi integral baholash uslubiyotini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Sifat menejmenti nazariyasining rivojlanishida amerikalik olim W. Edwards Demingning ilmiy ishlari alohida o'rin tutadi. Deming sifatni boshqarishda statistik usullarni qo'llash, jarayonlarni uzluksiz takomillashtirish hamda rahbariyatning sifatni ta'minlashdagi mas'uliyatini asoslab bergan [4]. U tomonidan ishlab chiqilgan PDCA (Plan–Do–Check–Act) sikli bugungi kunda sifat menejmenti tizimlarining fundamental tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Joseph M. Juran sifatni boshqarishni strategik boshqaruvning ajralmas qismi sifatida talqin qilgan. U ishlab chiqqan "Juran Trilogiy" konsepsiyasi sifatni rejalashtirish (Quality Planning), sifatni nazorat qilish

(Quality Control) va sifatni takomillashtirish (Quality Improvement) bosqichlarini o'z ichiga oladi [5]. Juran sifatni boshqarish jarayonida rahbariyatning faol ishtiroki va iste'molchi ehtiyojlarini qondirishni asosiy omil sifatida ko'rsatgan.

Philip B.Crosby sifat menejmentida "Zero Defects" (Nol nuqson) konsepsiyasini ilgari surgan [6]. Olimning fikriga ko'ra, sifatni ta'minlashning eng samarali yo'li nuqsonlarni keyinchalik bartaraf etish emas, balki ularning oldini olishdir. Shuningdek, u sifat xarajatlarini kamaytirish va profilaktik boshqaruvni korxonalar samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholagan.

Mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi xalqaro ISO 9001:2015 standarti bilan yanada takomillashtirildi. Mazkur standartga ko'ra, sifat menejmenti tizimi mijozga yo'naltirilganlik, rahbarlik, xodimlarning jalb etilishi, jarayonli yondashuv, doimiy takomillashtirish, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va manfaatdor tomonlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni boshqarish tamoyillariga asoslanadi. Shu bois korxonalarda sifatni boshqarish samaradorligini baholash faqat tayyor mahsulot sifatini emas, balki boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarining natijadorligini ham qamrab olishi lozim.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik tadqiqot usullarining o'zaro uyg'unligiga asoslanib, mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlash, ularni tizimlashtirish hamda integral baholash modelini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning nazariy asosini sifat menejmenti, umumiy sifatni boshqarish (Total Quality Management – TQM), jarayonli yondashuv va xalqaro sifat menejmenti standartlari bo'yicha ilmiy qarashlar tashkil etdi. Shuningdek, ISO 9001:2015 standarti tamoyillari hamda mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholashga oid ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Tahlillarga ko'ra, sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini "statistik baholash uslubiy yondashuvi texnologik jarayonlarni statistik nazorat qilish, jarayonlardagi tasodifiy va tizimli og'ishlarni aniqlash hamda nuqsonlarning oldini olishga qaratilgan" [7] bo'lib, mazkur uslubiyot "mahsulot sifati, birinchi navbatda, ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi bilan belgilanishi sababli, sifatni baholash faqat tayyor mahsulotni tekshirish bilan emas, balki butun texnologik jarayonni to'liq holatda monitoring qilish orqali amalga oshirilishi lozim"[8] hisoblanadi. O'zbekiston sanoat korxonalarida raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi mazkur usuldan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.


Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholashda ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan yana bir uslubiy yondashuv sifatida sifati kompleks baholash uslubiyotini keltirib o'tish mumkin bo'ladi. Tahlillar "sifati kompleks baholash uslubiyoti mahsulotning iste'mol xususiyatlari, ishonchligi, xavfsizligi, ekologikligi, estetik ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligini yagona integral ko'rsatkich asosida baholashga asoslangan"ligini ko'rsatdi [9]. Mazkur yondashuv mahsulot sifatiga kompleks baho berish imkonini yaratsa-da, ko'rsatkichlarning ahamiyat koeffitsiyentlarini belgilashda ekspert fikrlariga tayanilishi natijalarning muayyan darajada subyektiv bo'lishiga olib keladi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholashda "KPI tizimi", "Balanced Scorecard (BSC)", "Six Sigma" va "EFQM Excellence Model" kabi zamonaviy yondashuvlar ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu modellar sifat ko'rsatkichlarini moliyaviy natijalar, iste'molchilar qoniqishi, biznes-jarayonlar samaradorligi hamda innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog'liq holda baholash imkonini beradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholashga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni umumlashirgan holda ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston

sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholash uchun yagona usul yetarli emas. Samarali baholash tizimi statistik nazorat usullari, iqtisodiy tahlil, ISO 9001 tabllari, KPI indikatorlari, TQM tamoyillari hamda integral baholash metodlarining o'zaro uyg'unlashuviga asoslanishi maqsadga muvofiq. Bu esa mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, iqtisodiy natijadorlik va raqobatbardoshlikni kompleks baholash imkonini beradi hamda milliy sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirishning ilmiy-metodik asosini shakllantiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillarni inobatga olib, Jizzax viloyati yetakchi sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligi bo'yicha kompleks integral baholash uslubiyotini ishlab chiqishni lozim topdik. Biz tomondan ishlab chiqilgan baholash uslubiyotini amaliyotda qo'llash bosqichlari 1-rasmda keltirilgan bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-rasm. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishni kompleks baholash uslubiyoti¹

Ishlab chiqilgan kompleks baholash uslubiyoti mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi texnik, iqtisodiy, tashkiliy va innovatsion omillarni yagona tizim asosida baholash imkonini beradi hamda baholash natijalariga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan uslubiyotning asosiy afzalligi shundaki, u sifatni boshqarish jarayonini faqat nazorat qilish bilan cheklanmay, balki ma'lumotlarni yig'ish, ko'rsatkichlarni hisoblash, integral baholash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishning o'zaro bog'langan bosqichlarini qamrab oladi.

Taklif etilgan mexanizمنىning yakuniy natijasi sifatida mahsulot sifati ko'rsatkichlari yaxshilanishi, nuqsonli mahsulotlar ulushi kamayishi, ishlab chiqarish xarajatlari qisqarishi, iste'molchilar qoniqish darajasi oshishi, eksport salohiyati kengayishi va korxonaning milliy hamda xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi mustahkamlanishi kutilmoqda. Shu jihatdan mazkur mexanizm mahsulot sifatini boshqarish tizimining samaradorligini baholash bilan bir qatorda, uni strategik rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ilmiy-metodik asosi sifatida ham xizmat qiladi.

Tadqiqotning muhim jihati shundaki, ushbu mexanizm an'anaviy baholash yondashuvlaridan farqli ravishda mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi texnik, iqtisodiy, tashkiliy va innovatsion omillarni yagona integral modelga birlashtiradi. Bu esa baholash natijalarining obyektivligi va aniqligini oshiradi, korxonalar faoliyatini kompleks baholash imkonini yaratadi hamda mahsulot sifatini boshqarish sohasida ilmiy asoslangan strategik qarorlar qabul qilish uchun ishonchli axborot bazasini shakllantiradi. Mazkur yondashuvni Jizzax viloyati sanoat korxonalarida misolida aprobat siya qilish uning amaliy qiymatini tasdiqlaydi va respublika sanoat korxonalarida keng qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval
Jizzax viloyati ayrim sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini kompleks integral indeksi holati bo'yicha ma'lumotlar, 2025y.²

№	Korxonona nomi	Faoliyat yo'nalishi	K_{MSB}	Foiz (%)	Baholash darajasi
1	“ADM Jizzakh” MCHJ	Avtomobilsozlik	0,881	88,1	Yuqori darajada
2	“Jizzakh Toshpepa Textile” MCHJ	To'qimachilik	0,865	86,5	Yuqori darajada
3	“Jizzakh Chemical Plant” MCHJ	Kimyo sanoati	0,842	84,2	Yuqori darajada
4	“Sharof Rashidov nomidagi to'qimachilik kombinati” MCHJ	To'qimachilik	0,821	82,1	Yuqori darajada
5	“Bonu shirinliklari” MCHJ	Oziq-ovqat sanoati	0,804	80,4	Yuqori darajada
6	“Zenatkor temir beton buyumlari” MCHJ	Qurilish materiallari	0,768	76,8	O'rta darajada
7	“Fayz kommunal qurilish” MCHJ	Qurilish sanoati	0,742	74,2	O'rta darajada
8	“Diamond Carpet” MCHJ	Gilam mahsulotlari	0,724	72,4	O'rta darajada

9	“Jizzakh Electric Battery Plant” MCHJ	Akkumulyator ishlab chiqarish	0,711	71,1	O'rta darajada
---	---------------------------------------	-------------------------------	-------	------	----------------

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, avtomobilsozlik, kimyo va to'qimachilik tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalarda kompleks integral indeksning nisbatan yuqori bo'lishi, birinchi navbatda, xalqaro standartlarning joriy etilganligi, eksport bozori talablariga yo'naltirilgan ishlab chiqarish modeli, texnologik modernizatsiya va raqamli boshqaruv tizimlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Qurilish materiallari va mahalliy iste'mol bozoriga xizmat qiluvchi ayrim korxonalarda esa sifatni boshqarish tizimi mavjud bo'lsa-da, uning raqamlashtirish darajasi, innovatsion faolligi va analitik boshqaruv vositalari yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatildi.

Umuman olganda, kompleks baholash natijalari Jizzax viloyati sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligi turlicha darajada ekanligini ko'rsatdi. Integral indeksning yuqori bo'lishi asosan xalqaro standartlarning joriy etilganligi, texnologik modernizatsiya darajasi, eksport salohiyati, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion faollik bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Aksincha, texnologik eskirish, innovatsiyalarga investitsiyalar yetishmasligi, sifatni nazorat qilishning raqamli vositalari cheklanganligi hamda mijozlar bilan qayta aloqa mexanizmlarining rivojlanmaganligi mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, biz tomondan taklif etilgan sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholash uslubiyotini amaliyotga joriy etish sanoat korxonalarida nuqsonli mahsulotlar ulushini kamaytirish, sifat xarajatlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, tadqiqot natijalari mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslarini rivojlantirishga hissa qo'shadi hamda ulardan sanoat korxonalarida faoliyatini baholash, strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish va sifat menejmenti tizimini takomillashtirishda foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- International Organization for Standardization. (2015). ISO 9001:2015 Quality Management Systems — Requirements. Geneva: ISO.
- United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). (2022). Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. Vienna: UNIDO.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60-son Farmoni
- Deming, W. E. (1986). Out of the Crisis. Cambridge, MA: MIT Press
- Juran, J. M. (1988). Juran on Planning for Quality. New York: Free Press.
- Crosby, P. B. (1979). Quality Is Free: The Art of Making Quality Certain. McGraw-Hill.
- Dehghani M.R., Gharibshahian A. Analysis and Prediction of Product Quality Using Statistical Analysis and Machine Learning with Data Supplied by the Quality Control Unit of Mobarakeh Steel Company, Isfahan. Journal of Management and Business Solutions, Vol. 3 (3), 2025. – pp. 1-14. DOI: 10.61838/jmbs.233
- Royani A.D., Sholihin M., Dewi D., Novika N., Sorayya A., Hanifah W.N., Trilana R.R.A. and Buton P. The role of statistical methods and artificial intelligence in inventory management for manufacturing industries: a systematic literature review. Frontiers in Big Data, Vol. 9, 2026. – pp. 1-20. DOI: 10.3389/fdata.2026.1799073
- Backes J., Vogel J., Geissler A., Havranek M.M., Schladerer S.P., Ehlig D. Welcome to the jungle: collection and evaluation of quality indicators with the QUALICATOR instrument. BMJ Journals: BMJ Quality & Saety, June, 2026. – pp. 1-11. DOI: 10.1136/bmjqs-2026-020265

² Muallif tomonidan hisoblangan